XALQ DEPUTATLARI KOGON SHAHAR KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 26-may VII-12-74-2-208-K/25 Kogon shahar

Kogon shahar mahalliy byudjetining 2025-yil parametrlarining xarajatlariga o‘zgaritirishlar kiritish to‘g‘risida

Shaharning 2025-yilgi tasdiqlangan budjet parametrlari xarajatlar qismidagi 80 mlrd. 360.9 mln.so‘mlik mablag‘larga qo‘shimcha o‘zgartirishlar kiritish hisobiga 82 mlrd. 805.6 mln.so‘m aniqlangan reja belgilangan. Aniqrog‘i mahalliy budjetning xarajatlari joriy yil boshida aniqlangan erkin qoldiq mablag’lari (1 mlrd. 268.0 mln.so‘m) hamda yuqori budjetdan ajratilgan mablag’lar hisobiga jami 2 mlrd. 444.6 mln.so‘m yoki 3 foizga ko’paytirilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 148-moddasiga, O‘zbekiston Respublikasi “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddasiga muvofiq Xalq deputatlari Kogon shahar Kengashi **qaror qiladi:**

1. Kogon shahar iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘ining o‘rinbosari N.Eshmurodovning, Kogon shahar mahalliy byudjetining 2025-yil parametrlarining xarajatlariga o‘zgaritirishlar kiritish to‘g‘risidagi hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.
2. Kogon shahar mahalliy byudjetining 2025-yil parametrlariga kiritilgan o‘zgartirishlar ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
3. Kogon shahar iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘ining o‘rinbosari (N.Eshmurodov), shahar davlat soliq inspeksiyasi boshlig‘i bilan birgalikda:

shahar hokimligi bilan birgalikda daromadlar prognoz reja ko‘rsatkichlarini so‘zsiz ijrosini ta’minlash choralarini ko‘rish. Bunda, prognoz rejani har bir soliq turi kesimida to‘liq bajarilishini ta’minlash;

byudjet daromadlari bazasini kengaytirish hamda mahalliy byudjetga qo‘shimcha soliq tushirish manbalarini aniqlash va mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish;

mahalliy byudjet parametrlarida ko‘zda tutilgan xarajatlarni, xususan birinchi darajali to‘lovlarni o‘z vaqtida moliyalashtirilishini ta’minlash;

byudjet daromadlari va xarajatlari rejasiga o‘zgartirishlarni belgilangan tartibda hisobga olish, tegishli hududiy byudjet mablag‘ oluvchilarning xarajatlar miqdoridagi aniqlik kiritish;

byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanilishi hamda byudjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat o‘rnatish topshirilsin.

4. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari Kogon shahar Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiya raisi J.Do‘stov zimmasiga yuklatilsin.

5. Ushbu qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi



TO‘RABOYEV
MIRSHAKAR
MUZAFFAROVICH

Xalq deputatlari Kogon shahar
Kengashining
2025-yil 26-maydagi
VII-12-74-2-208-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Kogon shahar mahalliy budjetining 2025 yil xarajatlariga kiritiladigan o‘zgartirishlar

mln.so‘mda

№	Hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilari nomi	Aniqlangan reja	O‘zgartirishlar	O‘zgartirishdan keyingi reja
	Kogon shahri bo‘yicha jami	**2 509,1**	**0,0**	**2 509,1**
1.	Iqtisodiyot va moliya bo‘limi	1 913,9	-104,0	1 809,9
2.	Axborot kutubxona markazi	595,2	104,0	699,2